

QASHQADARYO GIDRONIMLARI TARIXI VA TALQINI

Jumma Buxorov Eshmamat o'g'li

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan daryolarning tarixiy ahamiyati hamda ularning nomlanishi haqida tarixiy manbaalar asosida o'rganamiz, u daryolarning hudud sivilizatsiyasidagi ahamiyati va o'rni haqida, suvdan samarali foydalanish, suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilinishi haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: daryolar, sug'orish, Qashqadaryo daryosi, gidronim, izohlar, so'z talqni, qurg'oqchilik, voha, sug'orish inshootlari.

Kirish: Qashqadaryo vohasi qurg'oqchil o'lka, xo'jalikning asosini qadimdan sun'iy sug'orish tashkil etganligi bois, aholi mazilgohlari asosan daryo va suv inshootlari bo'yida barpo bo'lgan. Ularning asosiy qismi Qashqadaryo va uning irmoqlari, G'uzordaryo bo'ylarida, shu bilan birgalikda Qarshi magistral kanali bo'yida joylashgan.

Joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bulib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumot beruvchi lisoniy darakchilardir. Shu bois toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya kabi o'nlab fanlar o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Toponimika shu bois tilshunoslikni yuqorida keltirilgan fanlar bilan tutashiruvchi, bog'lovchi rishta, o'z navbatida, ular uchun muhim dalillar, ma'lumotlar beruvchi nazariy va amaliy soxa hamdir.¹

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

E. A. Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, joy nomlari (toponimlar) yuzasidan tilshunoslar, tarixchilar, geograflar, etnograflar, folklorshunoslar hozirgacha bir necha tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa-da, mazkur tushuncha doirasiga kiradigan til birliklari - nomlar doirasi, chegarasi aniq va izchil belgilangan emas. Ko'p hollarda joy nomlari toponimlar deyilganda viloyat, tuman, shahar, qishloq, mahalla, ko'cha, maydon nomlarigina tushuniladi. Aslida toponimlar mundarijasi ancha keng va serqirradir. Uning joy nomlariga oid ilmiy-ommabop risolasida birinchi marta toponimiya doirasiga kiruvchi atoqli otlarning asosiy guruh va turlari to'laroq hamda mukammalroq qayd etildi².

Natijalar:

“O'zagroinspeksiya” tomonidan joriy yilning mart oyida suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilinishi, suv xo'jaligi ob'ektlarini o'z balansiga olgan subyektlar tomonidan suv olish limiti asosida suv yetkazib berilishi hamda suv iste'molchilari tomonidan suvdan oqilona foydalanilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatildi. Bu haqida “O'zagroinspeksiya” axborot xizmati xabar bermoqda.

Quyida bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, suv tanqisligi sharoitida iste'molchilar o'rtasida suv taqsimlash, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, joylarda suvni yetkazib berish va suv iste'molchilari orasidagi suv munosabatlarini takomillashtirish

¹ Uloqov N. M. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.

² Begmatov E. A. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

yuzasidan tuman irrigatsiya bo'limlari bilan klaster, fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilari o'rtasida shartnoma rasmiylashtirish o'rganib kelinmoqda.

Muhokama:

Quyda turli olimlarning asarlari va ilmiy ishlaridan olingan Qashqadaryo vohasidagi gidronimlarni ketirib o'tamiz:

Abziyat – Shahrisabz tumani. ob+ i+ sayyot sayyotlarning jilg'asi. Gidronimdan oykonim nomi kelib chiqqan.

Azizbuloq – Chiroqchi t. buloq. XI asr turkiy tilida aziz – baland yer, aziz tog' – baland tog' yoki o'tib bo'lmaydigan tog'³. Aziz va adir so'zlari o'zakdoshdir. “Devoni lug'otit-turk”da z so'z o'rtasida d tovushiga o'xshash talaffuz qilingan. So'z oxirida r-z tovushlari so'z yasovchilik vazifasini bajargan. Aziz va adir so'zlaridagi umumiy ma'no tog' etagidagi past-baland joydir. Keyinchalik adir leksemasi tilde saqlanib qolgan. Azizbuloq – tog' etagidagi buloq demakdir.

Anna - Chiroqchi tumanidagi qishloq, jilg'a ma'nosini beradi.(arna)⁴

Arabsoy – Kitob (Palandara), G'uzor (Qovchin, Sangishkin), Shahrisabz (Xitoy), Chiroqchi (Qalqama, Taloqtepa, Mozorli, Harduri), Qamashi (Oqrabot), Muborak (Maydayobi), Yakkabog' (Samoq) tumanlaridagi soy nomi. Arab etnik guruhiga mansub kishilarga tegishli soy⁵.

Aralovul – Qarshi sh, qishloq(Xudoyzod). Suv(daryoning tarmoqlangan joyi) o'rtasidagi yer bo'lagi, suvdan ajralib chiqiqb turganbalandroq joy, yalanglik – aral-umumturkiy so'z. Orolidagi ovul(aholi punkti). Qozog'istonning Orenburg viloyatidagi ko'l- aral.

Shu yerda aral, Ural degan ko'llar bor. Boshqirdistonning Uchali rayonidagi aral – ichik tepalik, balandlik, tog' tizmasi. Qozoqlarda har qanday tog' rizmasi ural deyilgan⁶. Ural – aral – orol so'zlarigenetik va semantik jihatdanbir-biriga yaqin, qadimiysi –aral. Aral+ovul (orol so'zining dialektik ko'inishi) daryo qirg'og'idagi balandlikda o'rnashgan qishloq demakdir⁷

Arna – Dehqonobod t. jilg'a, soy(Qizilcha, Oqirtma, Sho'rguzar) ; G'uzor tumani dashti(taxam, Pachkamar), Chiroqchidagi soy(Qalqama). Arna-anna so'zining Qashqa-Surxon vohasidagi ma'nolari- kichkina, kegligi 3-4 m keladigan uzun soy, suv, sel yuvib ketgan joy, chuqurlik(Shahrisabzda), kichik jar(Yakkabog'da); ye haydash natijasida hosil bo'lgan keraksiz ariqcha va marzalar(Shahrisabzda)⁸. Umuman arna-anna-orna-onna –tog' va adirda joylashgan qishloqlar aholisi nutqiga xos bo'lib, umumiy ma'no –suv qimidan hosil bo'lgan jarsimon o'yi. Xet tilida esa arna –buloq, chashma⁹. Xorazm shevalarida katta ariq, magistral kanal¹⁰. Bu so'zning o'zagi ar hind-yevropa tillariga xos bo'lib, suv, oqim ma'nosidadir.

Asrud – Oqsuv(Oqdaryo)ning qadimiy nomi. X-XI asrda arab geografllari asarlarida qayd qilingan. Sug'dcha rud –daryo, suv. X-XIX asrlarda tojik tilde os –tegirmon ; shuningdek, dumning ichida qora belgisi bo'lgan oq rangli hayvon, uni qoqum ham deyishgan¹¹.

Achchidaryo – Katta O'radaryoning o'ng irmog'i. O'ta sho'r suvli daryo.

³ Koshg'ariy M. “Devoni lug'otit turk. I–III. – T., 1963.

⁴ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T., 1988.

⁵ Yuqorifagi asar... – B. 15.

⁶ Камолов А. Ещё раз о топониме Урал, гидрониме Арал и термине арал. Местные географические термины. – Т., 1970.

⁷ Массон М. Столичные города в области низовевкашкардии с древнейших времен. – Т., 1973.

⁸ Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo shevalari. – T., 1969.

⁹ Qorayev S. Geografik nomlarning ma'nosini bilasizmi?. – T., 1970.

¹⁰ Do'simov Z. Xorazm topinimlari. – T., 1985. – B. 104.

¹¹ Фахранги забони тожики. – T., 1969.

Baliqko'l –Nishon tumanidagi hovuz. Baliq urchirilganligi va atrofdagi boshqa suv manbaalarida baliq bo'lmaganligi, lekin bu ko'lda baliq bo'lishi g'ayritabiiy hisoblanganligi sababli shunday nomlangan.

Qashqadaryo –daryo hamda O'zbekistonda 1943-yilda tashkil etilgan viloyat. Yasalishi qashqa+daryo, gidronim sifatida shakllangan. Qashqa yasama so'z: qash –asos, qa –yasovchi affiks. Qadimgi turkiy tilda qash-tepa, balandlik¹², XI asr turkiy tilda har narsaning cheti, yoqasi, yoni, qirg'oq¹³, XIII asr yodgorliklarida tog' cho'qqisi, balandlik, tizma tog'¹⁴, L.Z. Budagov lug'atida chig'atoycha qash- balandlik, tepa, tog' tizmasi do'nglik, V.V. Radlov lug'atida qash- o'simta, qavariq joy; balandlik, tepalik, ko'tarma; baland qirg'oq, yon, chet¹⁵. Teleut, tarim tillarida qash-do'nglik, do'ng, baland joy, ko'tarma yer, quba joy, baland qirg'oq¹⁶. Oltoy tillarida qash-qirg'oq, chekka; tepa, balandlik; uch, etak, tog' cho'qqisi¹⁷, xakas tilida xas-qirg'oq, balandlik, do'nglik; bron narsaning cheti, qirg'og'i¹⁸, Ikki umumiy ma'noga ega: balandlik(tepa, tepasimon balandlik, cho'qqi, tog' tizmasi), qirg'oq (balandlikning cheti, yoni).

Qash asosiga –qa, -lak, -qaq, -at, affikslari qo'shilgan: boshqairdcha qishlaq (cho'ziq bo'lmagan tik qiyalik, tik qoya, enish; balandlik), tatarcha qishlaq (qiya, nishablik, tog' yonbag'ri, tepa, balandlik, shevalarda tog')¹⁹, oltoycha kaskak (tik enish, qiyalik)²⁰. O'zbek, qozoq, qirg'iz tillarida qashqa (qash+qa) –tog'lik, tog'ga xos. Qirg'izcha Qashqa suv –tiniq suv, qashqa jol –to'ppa-to'g'ri yoki tik tog' yo'li²¹, Chuvash tilida qashqa –qashqi – tez (suv haqida), qashqa shu –te oqar suv, qashqa qum –uyum-uyum bo'lib to'planib qolgan qum. Qashqa va suv (daryo) leksemalari birikmasi suvning oqim sut'atini, qashqa va tepa leksemalari birikmasi balandlik hamini bildiradi. Qashqadaryo –tez oqar daryo. Bu ma'no asosida qashqa so'zining tog', tog'lik, balandlik ma'nosi turadi. Tog' daryosining oqim sur'ati tez, shiddatli bo'ladi. Daryoning Kitobdan shimol va sharq qismi nomi Qashqadaryo, so'ng bu nom quyi oqimga ham jojiy qilingan. Quyi qismga nisbatan aytilgan qurib qoladigan daryo, qaqshayotgan daryo (qaqsha daryo –qashqa daryo) izohlari daryoning hozirgi holatiga nisbat etilgan²².

Akademik V.V. Barold Qashqadaryo qadimiy Keshk rud ilan bog'liq, degan²³. E.M. Murzayev Qashqadaryo toj. Kesh +i+rud nomining o'zgargani, u qashqa komponentli (Qashqabuloq, Qashqatau, Qashqaashu) nomlari bilan munosabati yo'q deb qaraydi²⁴. Keshk rud-Keshrud –sug'dcha nom. Qashqadaryo –o'zbekcha nom.

Chimqo'rg'on –Chiroqchi tumanidagi qishloq (Aymoq); Yakkabog' tumanidagi qishloq (Beshqo'ton); Kitob tumanidagi qishloq (Qaychili), Qamashi tumanida joylashgan suv ombor. Chmqo'rg'on – tashqi devoir chimdan qilingan va enli qilib qurilgan istehkom, qal'a; qo'rg'on²⁵.

Tallimarjon –Nishon tumanidagi shahar (1976), Suv ombori, GRES, Temiryo' stansiyasi. Turkmaniston respublikasining Xo'jagumbaz rayonida ham Tallimarjon posyolkasi bor.

¹² Малов С. Е. Памятники древнеюркской письменности Монголии и Киргизии. – М.– Л., 1959.

¹³ Koshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. – T., 1960.

¹⁴ Куришжанов А. К. Исследование по лексике “тюркского-арабского словаря”. – Алма-Ата, 1970.

¹⁵ Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. I–IV, 1893.

¹⁶ Қараев С. О. О показателях множественности в топонимах Узбекистана. – Т., 1979.

¹⁷ Грамматика алтайского языка. – Казань, 1869.

¹⁸ Хакасско-русский словарь. – М., 1953.

¹⁹ O'sha joyda.

²⁰ Абрамзон С. М. Этнический состав киргизского населения Северной Киргизии. – Т., 1960.

²¹ Қараев О. О терминах и названиях в поеме “Кутадгу билиг”. – Т., 1981.

²² Насанов Н. О'рта Osiyo joy nomlari tarixidan. – Т., 1965.

²³ Бартольд В. В. Сочинения. – М., 1955.

²⁴ Мурзаев Э. М. Очерки топонимики. – М., 1974.

²⁵ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Т., 1988.

Marjonli tepa degan izoh bor²⁶. Arabcha –ruscha lug’atda mar, marj- o’tloq yaylov²⁷. Mar, marj so’zi tojik tiliga o’zlashib –on ko’plik suffiksi qo’shilib mar’on, marjon so’zi yasalgan. Ar. tall, marj so’zlari tojikcha so’z yasash qonuniga ko’ra birikib (tall+i+marj+on) toponimi yasalgan. Dastlab balandlik, yaylov, qo’rg’on xarobasi nomi bo’lgan. Tallimarjon – o’tloqli tepa, o’tli tepa; qo’rg’on tepa. Keyinchalik, ushbu toponim ushbu hududda suv omborining qurilishi natijaiga gidronimgan ham ko’chgan.

Beshariq –Koson tumanidagi mahalla, Qamashi tumanidagi soy, Yakkabog’ tumanidagi kanal. Yirik anhor yoki ariqning beshta (ba’zan undan ham ko’p) kichk tarmoqlarga bo’lingan joyi.

Beshbuloq –Qamashi tumanida qishloq (Ko’kabuloq, Oqmachit), Dehqonobod tumanidagi soy (Oqtosh). Buloqlarning son jihatdan ko’pligi va zich joylashganligi uchun shunday nomlangan. Besh va undan ko’p buloqli qishloq yoki soy²⁸.

Qamchinbuloq –Qamashi tumanidagi adir, buloq (Ko’kabuloq). O’zbek urug’laridan biri - qamchili. Etnograf K. Shoniyozovning izohiga ko’ra, qamchili urug’i nomi uning tamg’asiga nisbat etilgan, tamg’asi qamchi shaklida bo’lgan. Qamchi –ot bilan shug’ullanuvchi chorvadorlar uchun muqaddas sanalgan. Qamchi, qamchin – bir so’z. Gidronimga etnonim asos bo’lgan.

K. Shoniyozov qamchili urug’i o’tmishda qaysi urug’ –qabila birlashmasiga qaraganligini aniqlash qiyin, degan.²⁹ B. Karmisheva esa kesamir tarkibida qamchi urug’i borligini aniqlagan³⁰. Kesamirlar o’tmishda Tojikistonning Ko’lob bekligida yashagan.

Tuyatorlar – Koson tumanidagi joy. Qashqadaryoning o’ng qirg’og’idagi Hilol qishlog’idagi qadimiy ko’tarma ariq nomi. Ariqqa suv daryodan chig’ir orqali chiqarilgan. Chig’ir esa tuya orqali harakatga keltirilib, aylantirilgan. Chig’irga o’rnatilgan suv idishlari ancha yirik bo’gan, shuning uchun u katta kuch bilan aylantirilgan. Chig’ir harakati tuya kuchi bilan amalga oshirilganligi tufayli shunday atalgan.³¹

Obisafed –Qashqadaryoning chap irmog’i. XVI asrning vaqf hujjatlarida qayd qilingan³². Oqsuvning tojikcha tarjimasini ob+i+safed –oq suv.

Obiqashqa –Oqsuv daryosining irmog’i. “Vaqfnoma”da qayd etilgan. Tojikcha izofa ob+i+qashqa –qashqa suvi, qashqa jilg’asi.

Qashqadaryo vohasi aholisi asosan daryo bo’ylarida yashab bu hududlarni obod go’shalar-vohalarga aylantirganlar. Bizga yaxshi ma’lumki, kishilar qayerda yashasalar o’sha joyning nomini ko’pincha hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib nomlashadi, shuningdek Qashqadaryo vohasidagi aholi manzilgohlari ham asosan gidronimlar hisoblanadi. Tadqiqot ishimizda ushbu jihatlarni ham ko’zdan qochirmaslikka harakat qildik.

Xulosa:

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, yuqoridagi har uch yo’nalish ham yildan-yilga ko’proq suv talab qilmoqda va shu sababli o’lkamizda suv muammosi tobora tig’iz bo’lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda suvdan tejab-tergab foydalanish, uning samarasiz yo’qotilishiga yo’l

²⁶ Атанязов С. Туркменистанинг географик атларининг душунтиришли сўзлуги. – Ашгабад, 1980.

²⁷ Арабско-русский словарь / Сост. Х. К. Баранов. – М., 1962.

²⁸ Nafasov T. O’zbekiston toponimlarining izohli lug’ati. – T., 1988.

²⁹ Shoniyozov K. O’zbek xalqi etnik tarixi. – T., 1971.

³⁰ Кармишева Э. А. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976.

³¹ Nafasov T. O’zbekiston toponimlarining izohli lug’ati. – T., 1988.

³² Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. (По материалам “Вақф-наме”). – Т., 1966.

qoʻymaslik, qaytarma va oqava suvlardan unumli foydalanish, eng muhimi suv manbalarini ifloslanishdan va ortiqcha minerallashuvdan saqlash asosiy vazifa boʻlib qoldi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Uloqov N. M. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Begmatov E. A. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
3. Koshg'ariy M. "Devoni lug'otit turk. I–III. – T., 1963.
4. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T., 1988.
- 5 Yuqorifagi asar... – B. 15.
6. Камолов А. Ещё раз о топониме Урал, гидрониме Арал и термине арал. Местные географические термины. – Т., 1970.
- 7 Массон М. Столичные города в области низовевкашкардии с древнейших времен. – Т., 1973.
8. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo shevalari. – T., 1969.
9. Qorayev S. Geografik nomlarning ma'nosini bilasizmi?. – T., 1970.
10. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – T., 1985. – B. 104.
11. Фахранги забони тожики. – Т., 1969.
12. Малов С. Е. Памятники древнеюркской письменности Монголии и Киргизии. – М.–Л., 1959.
13. Koshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. – T., 1960.
14. Куришжанов А. К. Исследование по лексике "тюркского-арабского словаря". – Алма-Ата, 1970.
15. Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. I–IV, 1893.
16. Қараев С. О. О показателях множественности б топонимах Узбекистана. – Т., 1979.
17. Грамматика алтайского языка. – Казань, 1869.
18. Хакасско-русский словарь. – М., 1953.